



QARSHI MUHANDISLIK -
IQTISODIYOT INSTITUTI

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2024 / 4



innoeconomic@qmii.uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



<https://ojs.qmii.uz/index.php/ej>



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

2-jild
4-son
dekabr, 2024

December 2024
Volume 2
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Bosh muharrir:

O.SH.Bazarov, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori

Bosh muharrir o'rinbosari:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

*Jurnal 1 yilda 4 marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy-amaliy elektron jurnali - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-martda 068055-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmatlar sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)*

Shevchenko Igor Viktorovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)*

Kusainov Xalel Xaymullaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)*

Samandarzoda Iskandar Hakim - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)*

Sidirov Viktor Aleksandrovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti)*

Dmitro Dema - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Ukraina milliy universiteti, Jitomir)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Abdurahmonov Qalandar Xodjaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik*

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik*

Yusupov Ahmadbek Tadjievich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Pardaev Mamayunus Qarshiboevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Maxmudov Nosir Maxmudovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Nazarova Fatima Xakimovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Murtazaev Olim - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Navro'z-zoda Baxtiyor Ne'matovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xatamov Ochildi Qurbonovich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xamraeva Sayyora Nasimovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Salimov Baxtiyor Tadjievich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Rustamova Iroda Baxramjanovna - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Xurramov Azamat Fayzullaevich - *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Xayriddinov Azamat Botirovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Berdiev Abdumalik Hakimovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Fayzieva Shirin Shodmonovna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Omonov Rustam Farmonovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Samiyeva Gulnoza Taxirovna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.*

Egamberdieva Salima Raimberdievna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Tursunov Imomnazar Egamberdievich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.*

Erkaeva Gulbahor Panjievna - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - *iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Turobov Sherzod Alisherovich - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna - *iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.*

Panjiev Samijon Aliqulovich - *pedagogika fanlari falsafa doktori,*

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Учредитель:

Каршинский инженерно-экономический институт

Главный редактор:

О.Ш.Базаров, кандидат технических наук, доцент,
ректор Каршинского инженерно-экономического
института

Заместитель редактора:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор,
Каршинский инженерно-экономический институт

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD.
Каршинский инженерно-экономический институт

Технический редактор:

Ф.Ф.Хаккулов
Каршинский инженерно-экономический институт

Журнал издается 4 раза в год в электронном виде
через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225.

Тел.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» зарегистрирован
Агентством информации и массовых коммуникаций
при Администрации Президента Республики
Узбекистан 10 марта 2023 года за номером 068055.

Статьи публикуются в журнале на основе следующих рубрик:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика региона и отрасли
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - доктор экономических наук,
профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - доктор экономических наук,
профессор (Белорусский национальный технический университет)

Шевченко Игорь Викторович - доктор экономических наук, профессор
(Кубанский государственный университет, Россия)

Кусаинов Халел Хаймуллаевич - доктор экономических наук, профессор
(Казахстанский государственный технологический университет)

Самандарзода Искандар Ҳаким – доктор экономических наук,
профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш.Шотемура)

Сидиров Виктор Александрович - доктор экономических наук,
профессор (Кубанский государственный университет)

Дмитрий Дема - доктор экономических наук, профессор (Национальный
университет Украины, г. Житомир)

Члены Совета редколлегии:

Абдурахмонов Қаландар Ходжаевич - доктор экономических наук,
профессор, академик

Гулямов Саидахрор Саидахмедович - доктор экономических наук,
профессор, академик

Юсупов Аҳмадбек Таджиевич - доктор экономических наук, профессор

Пардаев Мамаюнус Қаршибоевич - доктор экономических наук,
профессор

Вахабов Абдурахим Васикович - доктор экономических наук, профессор

Махмудов Носир Махмудович - доктор экономических наук, профессор

Назарова Фатима Хакимовна - доктор экономических наук, профессор

Муртазаев Олим - доктор экономических наук, профессор

Наврӯз-зода Бахтиёр Неъматович - доктор экономических наук,
профессор

Хатамов Очилди Қурбоневич - доктор экономических наук, профессор

Хамраева Сайёра Насимовна - доктор экономических наук, профессор

Салимов Бахтиёр Таджиевич - доктор экономических наук, профессор.

Рустамова Ирода Бахрамжановна - доктор экономических наук,
профессор.

Хуррамов Азамат Файзуллаевич - доктор экономических наук,
профессор.

Хайриддинов Азамат Ботирович – кандидат экономических наук,
доцент.

Бердиев Абдумалик Ҳакимович - кандидат экономических наук, доцент.

Файзиева Шириш Шодмоновна - кандидат экономических наук, доцент.

Омонов Рустам Фармонович - кандидат экономических наук, доцент.

Самиева Гулноза Тахировна - кандидат экономических наук, доцент.

Эгамбердиева Салима Раимбердиевна - кандидат экономических наук,
доцент.

Турсунов Имомназар Эгамбердиевич - кандидат экономических наук,
доцент.

Аликулов Азамат Туйғунович - кандидат экономических наук, доцент.

Эркаева Гулбахор Панжиевна - кандидат экономических наук, доцент.

Аминов Фазлитдин Бахадирович - кандидат экономических наук,
доцент.

Хужакулова Нигора Рустамовна - кандидат экономических наук.

Туробов Шерзод Алишерович - кандидат экономических наук.

Эргашева Насиба Рахматуллаевна - кандидат экономических наук.

Панжиев Самижон Аликулович - PhD, доцент.

Mundarija

Nazariya va metodologiya	8
IQTISODIY TADQIQOT OBYEKTI ASOSIDA MEHNAT POTENSIALINI BOSHQARISH	9
<i>Djanmaxmadov, Kurbonali Sheraliyevich</i>	
TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR	14
<i>Xujakulova, Nigora Rustamovna¹, Poyonova, Aziza Nasriddin qizi²</i>	
Raqamli iqtisodiyot	18
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	19
<i>Ergashev, G'ayrat Urolovich</i>	
Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti	25
MINTAQADA "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI	26
<i>Samiyeva, Gulnoza Toxirovna, Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li</i>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	35
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASH JARAYONLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	36
<i>Saidova, Gulnoza Tulkunovna</i>	
Inson kapitali iqtisodiyoti	42
QIШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ	43
<i>Очилов Акрам Одилевич, Алимова Муниса Юлчиевна,</i>	
Menejment va marketing	49
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON EKSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI	50
<i>Nargiza Eshqobilova Mengnarovna, Usmonova Adiba Azim qizi</i>	
Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit	55
TEKNOLOGIK TARAQQIYOT VA UNING IQTISODIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI	56
<i>Eshqobilova, Nargiza Mengnarovna, Pardayev, Jahongir Abdumurot o'g'li</i>	
Xizmatlar sohasi	61
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	62
<i>Тайлакова, Дилафруз Боймаматовна</i>	

Содержание

Теория и методология	8
ТРУДОВОЙ ПОТЕНЦИАЛ И УПРАВЛЕНИЕ ТРУДОМ КАК ОБЪЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ	9
<i>Джонмахмадов, Курбонали Шералиевич</i>	
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ	14
<i>Хужакулова, Нигора Рустамовна¹, Поёнова, Азиза Насриддин кизи²</i>	
Цифровая экономика	18
ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ	19
<i>Эргашев, Гайрат Уролович</i>	
Экономика региона и отрасли	25
ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ «ЗЕЛеной ЭКОНОМИКИ» В РЕГИОНЕ	26
<i>Самиева Гульноза Тохировна, Аликулов Хумоюн Тохир угли</i>	
Малый бизнес и частное предпринимательство	35
НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОЙ ПЕРЕРАБОТКИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	36
<i>Саидова, Гулноза Тулкуновна</i>	
Экономика человеческого капитала	42
КЛАССИФИКАЦИЯ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА УРОВЕНЬ ЖИЗНИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ	43
<i>Очилов Акрам Одилевич, Алимова Муниса Юлчиевна,</i>	
Менеджмент и маркетинг	49
ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЭКСПОРТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	50
<i>Усмоновой Адиба Азим кизи</i>	
Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит	55
ТЕХНИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ.	56
<i>Эшкобилова, Наргиза Менгнарровна, Пардаев, Джахангир Абдумурат угли.</i>	
Сфера услуг	61
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАШАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ	62
<i>Тайлакова, Дилафруз Боймаматовна</i>	

Contents

Theory and methodology	8
LABOR POTENTIAL AND LABOR MANAGEMENT AS OBJECTS OF ECONOMIC RESEARCH	9
<i>Djanmakhmadov, Kurbonali Sheralievich</i>	
PROBLEMS IN EDUCATION DEVELOPMENT AND FACTORS AFFECTING IT	14
<i>Khujakulova, Nigora Rustamovna¹, Poyonova, Aziza Nasriddin kizi²</i>	
Digital economy	18
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES	19
<i>Ergashev, Gayrat Urolovich</i>	
Economy of the region and industry	25
ISSUES OF ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH BASED ON THE "GREEN ECONOMY" IN THE REGION	26
<i>Samieva Gulnoza Tokhirovna Alikulov, Khumoyun Tohir ugli</i>	
Small business and private entrepreneurship	35
DIRECTIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL PROCESSING OF AGRICULTURAL PRODUCTS	36
<i>Saidova, Gulnoza Tulkunovna</i>	
Economics of human capital	42
CLASSIFICATION OF FACTORS AFFECTING THE LIVING STANDARD OF THE RURAL POPULATION	43
<i>Ochilov Akram Odilovich, Alimova Munisa Yulchievna,</i>	
Management and Marketing	49
PROBLEMS OF INCREASING THE COMPETITIVENESS OF UZBEKISTAN'S EXPORTS UNDER GLOBALIZATION	50
<i>Usmonova Adiba Azim kizi</i>	
Accounting, economic analysis and audit	55
TECHNOLOGICAL PROGRESS AND ITS IMPACT ON ECONOMIC CHANGES.	56
<i>Eshkobilova, Nargiza Mengnarovna, Pardaev, Jaxhangir Abdumurat ugli</i>	
Service sector	61
ECONOMIC DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE SERVICE SECTOR IN RURAL AREAS OF KASHKADARYA REGION	62
<i>Taylakova, Dilafroz Boymamatovna</i>	

Mintaqa va
tarmoqlar
iqtisodiyoti

Экономика
региона и отрасли

Economy of the
region and industry

MINTAQADA “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH MASALALARI

Samiyeva, Gulnoza Toxirovna, Aliqulov Humoyun Tohir o‘g‘li

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ «ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ» В РЕГИОНЕ

Самиева Гульноза Тохиrowна, Аликулов Хумоюн Тохиr угли

ISSUES OF ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH BASED ON THE “GREEN ECONOMY” IN THE REGION

Samieva Gulnoza Tokhировna Alikulov, Khumoyun Tohir ugli

Received: Nov 14th, 2024 Revised: Nov 18th, 2024 ■ Accepted: Nov 20th, 2024 ■ Published Online: Jan 6th, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqada yashil iqtisodiyotga o‘tish, uning maqsadi va vazifalari, mintaqada “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash masalalari haqida fikrlar bayon etilgan. Barchamizga ma‘lumki, resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o‘shishga erishish iqtisodiyotning bosh maqsadlaridan biridir. Resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha jahon tajribasi ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investitsiyalarni talab etishi, ustuvor e‘tibor tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.
- **Maqola** orqali “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etishini hamda tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillarga bevosita bog‘liq bo‘lishini bilib olish mumkin. Shuning uchun o‘tish jarayoni qulay muhit – huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.lar bilan ham bog‘langan holda hosil bo‘ladi, yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq etish maqolada dolzarb masalalar ekanini aks ettiradi.
- **Kalit** so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, “yashil iqtisodiyot” strategiyasi, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, “yashil” investitsiyalar
-
- **Аннотация.** В данной статье описан переход к зеленой экономике в регионе, его цели и задачи, а также

вопросы обеспечения устойчивого экономического роста региона на основе «зеленой экономики». Как мы все знаем, достижение экономического роста за счет рационального использования ресурсов является одной из главных целей экономики. Мировой опыт рационального использования ресурсов характеризуется тем, что этот процесс требует длительного периода времени, крупных инвестиций, приоритетное внимание направлено на эффективное использование возобновляемых источников энергии, развитие энергосберегающих технологий.

■ **Благодаря** статье вы сможете узнать, что процесс перехода к «зеленой экономике» имеет особое значение для каждой страны и напрямую зависит от таких факторов, как природный капитал, человеческий капитал и уровень экономического развития страны. Таким образом, переходный процесс формируется в связи с благоприятной средой - правовой инфраструктурой, мотивационными факторами и т.д., исследование особенностей поддержки и развития перехода к зеленой экономике отражено в статье.

■ **Ключевые** слова и фразы: «зеленая» экономика, переход к «зеленой» экономике, стратегия «зеленой экономики», концепция «зеленой экономики», «зеленые» инвестиции.

■ **Abstract.** This article describes the transition to a green economy in the region, its goals and objectives, as well as issues of ensuring sustainable economic growth in the region based on the "green economy". As we all know, achieving economic growth through the rational use of resources is one of the main goals of the economy. World experience in the rational use of resources is characterized by the fact that this process requires a long period of time, large investments, priority attention is focused on the efficient use of renewable energy sources, the development of energy-saving technologies. Thanks to the article, you will be able to learn that the process of transition to a "green economy" is of particular importance for each country and directly depends on such factors as natural capital, human capital and the level of economic development of the country. Thus, the transition process is formed in connection with a favorable environment - legal infrastructure, motivational factors, etc., the study of the features of support and development of the transition to a green economy is reflected in the article.

■ **Key** words and phrases: "green" economy, transition to a "green" economy, "green economy" strategy, "green economy" concept, "green" investments.

KIRISH

Iqtisodiyotning bosh masalasi – cheklangan resurslar hisobiga insonning cheksiz ehtiyojlarini qondirish bo'lib, bugungi kunda bu masala yanada dolzarbligini kasb etmoqda. Chunki aholi sonining keskin oshishi, jahon iqtisodiyotida daromadlilik darajasi oshgan davlatlarning ko'payishi bu qonuniyatning dolzarblikdan tushmaganini ko'rsatmoqda. Ushbu cheklangan resurslardan tejamkorlik asosida foydalanish, iqtisodiy o'sishda barqarorlikka erishish, sof va tabiiy mahsulotlarga texnologiyalarga ehtiyojning 3 baravarga oshishi, "sof texnologiyalar"ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish muammolari jahon xalqaro anjumanlarida muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, iqtisodiy, ekologik, investitsion forum va konferentsiyalarda muntazam ravishda muhokama etib kelinayotgan asosiy masalalardan biri – "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdir.

O'zbekiston Respublikasida "yashil iqtisodiyot" asosida

barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturilamal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi [1].

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etadi hamda tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning

uchun o'tish jarayoni qulay muhit – huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.lar bilan ham bog'langan holda hosil bo'ladi, yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq etish mavzuning dolzarbligini izohlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zR Oliy Majlisga murojaatnomasida O'zR Prezidenti SH.M.Mirziyoyev keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o'tkazish tartibini qayta ko'rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etdi [2]. O'zbekiston Respublikasi 2015 yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030 yilgacha mo'ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror taraqqiyot dasturini qo'llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishning 3 asosiy sohalari, ya'ni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sohalar bo'yicha kompleks ishlarni olib borishi ma'lum qilindi [3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida ham "Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar", - deb yozilgan [4]. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, resurs ko'p ishlatadigan iqtisodiyotdan taraqqiyotning innovatsion modeliga o'tish hisobga olingan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ko'p jihatdan XXI asrda har qanday davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. "Yashil iqtisodiyot" modeli inson faoliyati va tabiat hamkorligini normallashtiradi [5]. "Yashil iqtisodiyot"dan farqli ravishda XX asr iqtisodiyotining an'anaviy modeli bo'lgan "jigarrang" iqtisodiyot ishlab chiqarishning ko'p energiya ishlatuvchi va resurs sarflovchi modellariga asoslangan. Ekologik muammolar, tabiiy kapitalning tugab bitishi, chuchuk suvning, oziq-ovqatning, energiyaning yetishmasligi, qashshoqlikning keng quloch yozishi "jigarrang" iqtisodiyotning asosiy salbiy oqibatlari hisoblanadi.

YE. Lyaskovskaya va K. Grigoryeva "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni texnologik rivojlanishdan voz kechishni anglatadimi degan savolga javob berishga qaratilgan bo'lib "barqaror rivojlanish", "inklyuziv rivojlanish", "yashil" va "jigarrang" iqtisodiyot modellari ko'rib chiqishgan [6]. Iqtisodiyotning

"jigarrang" rivojlanish modeli XX asrga hos bo'lgan va energoresurs sig'imi yuqori bo'lgan an'anaviy ishlab chiqarish nazarda tutilgan. Uning asosiy salbiy oqibatlari ekologik muammolarni keskinlashishi, tabiiy boyliklarni samarasiz ishlatilishi, suv resurslar, oziq-ovqat va energiya tanqisligi bilan bog'liq deb hisoblanmoqda [7].

"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlanishida xizmatlar sohasining muhim yo'nalishlaridan biri "ekologik" turizmni rivojlantirish katta ahamiyatga ega [8]. Natijada, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda imkoniyatlarini kengaytiradi [9].

BMTga a'zo 193 ta davlat tomonidan bir ovozdan qabul qilingan Barqaror taraqqiyot maqsadlari ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Yakuniy kun tartibi barqaror taraqqiyotning barcha uchta xususiyatini – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik taraqqiyotni, shuningdek tinchlik va adolat masalalarini o'z ichiga oladi. Ushbu strategik hujjatda Maqsadlarga erishish uchun vositalarni, shu jumladan moliyaviy resurslarni mobillashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va hamkorlar rolini mustahkamlash zaruratiga urg'u beriladi. Yuzaga kelgan ekologik vaziyat ularni ham milliy, ham mintaqaviy darajalarda kompleks hal qilish mexanizmini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

"Yashil" iqtisodiyotning mohiyati va unga o'tish konsepsiyasi masalalari Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olimlar D.Pirs va E.Barbiyerlarning ""Yashil iqtisodiyot" uchun reja (Blueprint for a Green Economy)" nomli asarida birinchilar qatorida ochib berilgan [10]. O.V.Bashorina, I.M.Temkina ""Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jamiyatning barqaror rivojlanishi, kambag'allikni qisqartirish asosidir" deb baholashgan [11]. A.V.Neverov, Vodopyanova ""Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida davlat inson kapitali, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital va moliyaviy kapitallarni muvofiqashtirib foydalanish" zarurligini ta'kidlaydilar [12]. Mualliflar guruhi "dunyoga xavf solayotgan CO2 zaharli gazlar inqirozi to'g'risida" xabar beradilar [13]. ""Yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun juda katta imkoniyatlar mavjudligi, iqtisodiyotni yashillashtirish uchun "yashil" investitsiyalar kerak, yashil tarmoqlarni moliyalash, yangi ish o'rinlarini barpo qilish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash mumkin", - degan fikrni iqtisodchi olim N.N.Yashalova ilgari suradi [14]. Iqtisodchi olimlar N.Piskunov va N.V.Paxomov ""Yashil iqtisodiyot"ga o'tish "musobaqa"sida Shvetsiya, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari yetakchilik qilmoqda" deb ta'kidlaydilar [15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik va ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar olimlar diqqat markazida turgan bir paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 2015 yilda ilgari surilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" va uni amalga oshirish konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Barqaror rivojlanish, ayniqsa bugungi global muammolar avj olgan bir paytda, mamlakatlarning asosiy maqsadiga aylangan.

XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o'sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu esa o'z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo'nalishlari: qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurulish sohalari barchasi "yashil" tus olishi muhimligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining" mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'la mos kelishini ta'kidlab o'tdi [16]. "Harakatlar strategiyasi"da mo'ljallangan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalar belgilangan [17].

Adabiyotlarda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi ilk marotaba 1989 yilda qo'llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi [18]. Ayrim manbalarda "yashil iqtisodiyot" mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq etilsa, ba'zi tadqiqotlarda "yashil iqtisodiyot" tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa "yashil iqtisodiyot" - bu ekologik toza mahsulotlar

yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" - bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir [19]. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi.

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish suv resurslaridan noqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi. Yuqoridagi xorijlik mutaxassislarining fikriga ko'ra, "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishning turli sohalarida keng tarqalgan 10 ta ekologik ko'nikma, ya'ni: dizaynerlik, liderlik sifatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, energetik, shaharlarni rejalashtirish, landschaft dizayni, muloqot olib borish, chiqindilarni boshqarish, sotib olish va moliyaviy ko'nikmalarga talab katta.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston respublikasining faqatgina Toshkent shahrining o'zida qattiq uy xo'jaligi chiqindilarini to'plash, qayta ishlash va ulardan mahsulot tayyorlash bo'yicha 8 ta klaster ishga tushdi, uning quvvati yiliga 146000 tonna, kuniga 400 tonna xo'jalik chiqindilarini qayta ishlashdan iborat zavod ishga tushdi. Qoraqalpog'istonda yiliga 78000 tonna chiqindini qayta ishlovchi korxonalar qurildi. Navoiy shahrida kuniga 200 tonna chiqindini qayta ishlovchi zavod ishga tushdi. Bundan tashqari O'zbekistonda 186 poligon ishga tushib, bularga 34 mln. tonna chiqindi yerga ko'milmoqda. O'zbekistonda bir dehqon 10-13 ta odamni boqayotgan bir paytda "yashil iqtisodiyot"ga o'tgan "yashil" davlatlar - Shvetsiya, Finlyandiya va Janubiy Koreyada 1 dehqon 50-60 ta odamni boqmoqda [20].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab bergan. Ushbu vazifalar qatorida yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga bo'lgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig'i bilan qoplashga yetarli ekani hisobga olinib, so'nggi yillarda bu sohada huquqiy baza yaratilgani tufayli investorlar uchun jozibador muhit shakllangani ham qayd etildi. Shunga oid "yashil energiya" manbalarini barpo qilish bo'yicha yurtimizda

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari to'g'risida ma'lumot (2023 yil) [21]

№	TUMAN/ SHAHAR NOMI	JAMI O'RNATILGAN QURILMALAR							
		OBYEKT SONI		QUYOSH PANELLARI QUVVATI (KVT)			GELIOKOLLEKTOR (MING LITR)		
		REJA	FAKT	REJA	FAKT	BAJA RILISHI (FOIZDA)	REJA	FAKT	BAJA RILISHI (FOIZDA)
	Viloyat jami	4066	3570	54114	30677	56,7	78,3	79,3	101
1	G'uzor	249	162	3060	1396	45,6	1,4	4,4	323
2	Dehqonobod	180	168	2174	1911	87,9	7,2	3,1	42
3	Qamashi	260	261	3150	1389	44,1	2,3	3,1	131
4	Qarshi tum	292	225	3780	1919	50,8	8	3,3	41
5	Kasbi	223	229	2710	1328	49	9,3	2,9	31
6	Kitob	260	361	3590	1661	46,3	4,6	2,4	52
7	Koson	287	240	3770	1459	38,7	6	2,8	46
8	Mirishkor	203	116	2400	1393	58	1,2	3,2	267
9	Muborak	166	121	2140	2993	140	0,8	3,3	401
10	Nishon	198	136	2480	1659	66,9	2,4	2,6	107
11	Chiroqchi	269	316	3750	1543	41,1	3,6	10,6	293
12	Ko'kdala	172	176	2020	913	45,2	2,5	7,6	299
13	Yakkabog'	275	335	3750	1566	41,8	11,6	15,5	134
14	Shahrisabz t	227	151	2500	1132	45,3	1,6	2	121
15	Shahris.sh	276	203	4110	1724	41,9	3,9	6,6	168
16	Qarshi sh	531	370	8730	6694	76,7	11,6	6	52

katta dasturlar boshlandi. Bugungi kunga qadar sohaga 2,1 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kirib keldi, yana 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda. Jumladan, ijtimoiy soha obyektlari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlarga tegishli binolar va aholi xonadonlarida umumiy quvvati 457 megavattli quyosh panellari o'rnatildi. Qashqadaryo viloyatida ham 2 gigavattli quyosh stansiyasini ishga tushirish

masalasi ko'rildi.

Joylarda quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha ishlarni yanada kengaytirish, aholining "yashil" energiyadan foydalanish borasidagi intilishlarini qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi. Tadbirkorlarga quyosh energiyasi quvvatlarini joriy etishda manfaatdorligini oshirish uchun qo'shimcha yengilliklar yaratilishi belgilandi.

2024 yil davomida Osiyo taraqqiyot bankining moliyaviy va

texnik ko'magida Qashqadaryo viloyatida quvvati 300 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 75 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimi davlat-xususiy sheriklik asosida quriladi. Ushbu loyiha bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tender natijalariga ko'ra, "Abu Dabi Future Energy Company – Masdar" g'olib deb topilgan. Loyihani amalga oshirish uchun xususiy sherik sifatida "Nur Kashkadarya Solar PV" MCHJ ta'asis etilgan.

Qashqadaryo viloyatida "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish uchun dastlab qayta tiklanuvchi, muqobil manbalardan foydalanish davlat dasturlarini bajarish vazifasi topshirildi. 1-jadvalda Qashqadaryo viloyatida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari to'g'risida ma'lumot berilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati hududida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya jami 3570 ta obyekt mavjud bo'lib, reja bo'yicha 4066 ta bo'lishi kerak edi. Bu esa 496 taga bajarilmaganini, yoki 87%ga bajarilganini bildiradi. Ushbu obyektlardan eng ko'pi Qarshi shahar (370), Kitob tumani (361), Yakkabog' tumani (335), Chiroqchi tumani (316), Qamashi tumani (261), Koson tumani (240) bajarilganiga qaramay, reja va fakt orasidagi farq katta. Masalan, Qarshi shahrida 531 ta rejada belgilangan, ammo 370 taga bajarilgan. Bu 161 ta kamga bajarilganini anglatadi.

Ammo Kitob tumanida obyektlar soni rejada 260 ta bo'lishiga qaramasdan 361 taga bajarilgan, ya'ni 101 taga yoki 138,8%ga oshirib bajarilgan. Jadvaldagi ma'lumotdan ko'rish mumkinki, quyosh panellari quvvati Qashqadaryo viloyati reja bo'yicha 54114 kvt bo'lsa, amalda 30677 kvt ga bajarildi, bu esa 56,7%da bajarilganini anglatadi.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatish bo'yicha olib borilgan ishlar ham 2-jadvalda berilgan.

2-jadvaldan ko'rish mumkinki, Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari 2023 yilda jami 664 taga yetgan, ammo rejada 733 ta deb belgilangan. Shuning ichidan Qarshi shahri, Chiroqchi, Ko'kdala, Kasbi, Qamashi, Kitob, Qamashi, Qarshi tumanlarida eng ko'p ijtimoiy obyektlarga kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'rnatilgan.

Viloyat bo'yicha ijtimoiy obyektlarga o'rnatilgan quyosh panellari quvvati 12035 kvtni tashkil etib, rejadagi 7367 kvt dan 4668 kvt ko'p bajarilgan. Geliokollektor o'rnatish

rejadagi 8,3 ming litrdan 53,6 ming litrga ko'p, ya'ni 61,9 ming litrga bajarilgan.

3-jadvalda esa Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlarida o'rnatilgan qurilmalar soni va quyosh panellari quvvati keltirilgan.

Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlarida o'rnatilgan qurilmalar soni 1933 ta bo'lishi kerak bo'lgan holda 1034 taga bajarilgan. Jumladan, G'uzor tumani tadbirkorlik subyektlari 65 ta (rejadagi 100 tadan 35 taga kam), Dehqonobod tumani 34 ta (rejadagi 70 tadan 36 ta kam), Qamashi tumani 59 ta (rejadagidan 42taga kam), Qarshi tumani 81 ta (45 taga kam), Kasbi tumani 45 ta (44 taga kam), Kitob tumanida 96 ta (39 taga kam), Koson tumani 69 ta (66 taga kam), Mirishkor tumani 19 ta (56 taga kam), Muborak tumani 36 ta (39 taga kam), Nishon tumani 23 ta (61 taga kam), Chiroqchi 75 ta (65 taga kam), Ko'kdala tumani 46 ta (17 taga kam), Yakkabog' tumani 59 ta (81 taga kam), Shahrisabz tumani 33 ta (37 taga kam), Shahrisabz shahri 109 ta (51 taga kam), Qarshi shahri 185 ta (187 taga kam) qurilmalar o'rnatilgan. Bu esa davlat dasturlari va rejaning 46,5%ga bajarilmayotganini ko'rsatadi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlariga davlat imtiyozlar berishni ko'zda tutuvchi qarorlarni qabul qildi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanmoqda. Bundan tashqari, tabiatda tabiiy ofatlar – toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari, zilzilalar kabilar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatini buzmoqda.

Qayd etib o'tilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda "yashil iqtisodiyot"ning tor va keng ma'nodagi ta'riflarini farqlash mumkin. Tor ma'noda "yashil iqtisodiyot"ni an'anaviy iqtisodiyot bilan yonma-yan rivojlanayotgan muayyan tarmoqlar yig'indisi sifatida tavsiflash mumkin. Keng ma'noda esa "yashil iqtisodiyot" uchun muhim dinamik jihat, ya'ni iqtisodiy tizimda ekologiyaga yo'naltirilgan o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, “barqaror rivojlanish”, “yashil o’sish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik “yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish “yashil o’sish”ni ta’minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ko’maklashadi. Demak, “yashil iqtisodiyot”ni barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning asosi sifatida qabul qilish mumkin. “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq:

- ▶ “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini muvafaqqiyatli amalga oshirishdagi bosh muammo “yashil iqtisodiyot” tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo’shimcha investitsiyalar yo’naltirish yoki “yashil o’sish” sifatida soddalashtirish hisoblanadi;
- ▶ “yashil iqtisodiyot”ga o’tish zarurligini ilmiy asoslashning murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyani tushunarli, sodda tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug’diradi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida kichik quvvatdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o’rnatish bo’yicha olib borilgan ishlar to’g’risida (2023 yil) [21]

№	TUMAN/ SHAHAR NOMI	JAMI O’RNATILDIGAN QURILMALAR							
		OBYEKT SONI		QUYOSH PANELLARI QUVVATI (KVT)				GELIOKOLLEKTOR (MING LITR)	
		REJA	FAKT	REJA	FAKT	BAJARILISHI % DA	REJA	FAKT	BAJARILISHI % DA
	Viloyat jami	733	664	7 367	12 035	163	8,3	61,9	745,8
1	G’uzor	52	20	520	506	97	0,5	3,5	700
2	Dehqonobod	38	35	387	371	96	0,5	2,3	460
3	Qamashi	55	44	550	596	108	0,5	2,9	580
4	Qarshi tum	56	40	560	1 063	190	0,5	2,9	580
5	Kasbi	47	46	470	647	138	0,5	2,7	540
6	Kitob	42	42	425	590	139	0,5	1,1	220
7	Koson	53	39	535	574	107	0,5	2,7	540
8	Mirishkor	45	28	450	465	103	0,5	3	600
9	Muborak	32	21	320	583	182	0,5	2,7	540
10	Nishon	40	29	400	314	79	0,5	2,6	520
11	Chiroqchi	44	58	445	538	121	0,5	10	2 000
12	Ko’kdala	38	51	385	506	132	0,6	7,4	1 233
13	Yakkabog’	47	49	475	456	96	0,5	4,8	960
14	Shahrisabz t	55	47	550	702	128	0,5	1,7	340
15	Shahrisabz sh	38	28	385	612	159	0,6	6	1 000
16	Qarshi sh	51	87	510	3 512	689	0,6	5,6	933

3-jadval

Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlarida o'rnatilgan qurilmalar soni va quyosh panellari quvvati (2023 yil) [21]

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BINO VA INSHOOTLARIDA O'RNATILADIGAN QURILMALAR						
№	HUDUDLAR	OBYEKT SONI		QUYOSH PANELLARI QUVVATI, JAMI (KVT)		
		REJA	FAKT	REJA	FAKT	BAJARILISHI %
	Viloyat jami	1 933	1 034	38 660	14 053	36,3
1	G'uzor tumani	100	65	2 000	738	36,9
2	Dehqonobod t	70	34	1 400	1 373	98,1
3	Qamashi tumani	101	59	2 010	427	21,3
4	Qarshi tumani	126	81	2 520	565	22,4
5	Kasbi tumani	89	45	1 770	329	18,6
6	Kitob tumani	135	96	2 700	625	23,1
7	Koson tumani	135	69	2 700	472	17,5
8	Mirishkor tumani	75	19	1 500	773	51,5
9	Muborak tumani	75	36	1 500	2 280	152
10	Nishon tumani	84	23	1 680	1 169	69,6
11	Chiroqchi tumani	140	75	2 800	500	17,9
12	Ko'kdala tumani	63	46	1 250	238	19
13	Yakkabog' tumani	140	59	2 800	565	20,2
14	Shahrisabz tumani	70	33	1 400	270	19,3
15	Shahrisabz shahar	160	109	3 200	849	26,5
16	Qarshi shahar	372	185	7 430	2 879	38,7

Jumladan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo'yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda;

► "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi, "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;

► barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi;

► "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda sodir bo'ladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Samiyeva, Gulnoza Toxirovna – QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD) / Самиева Гульноза Тохировна - доцент кафедры «Инновационная экономика» КИЭИ, доктор философских наук по экономике (PhD) / Samieva

Gulnoza Tokhirovna - Associate Professor of the Department of "Innovative Economics" KIEI, Doctor of Philosophy in Economics (PhD)

► samiyevagulnoza@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-3192-3887>

2. Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li – QarMII magistranti / Аликулов Хумоюн Тохир угли, КИЭИ, магистрант / Alikulov Khumoyun Tohir ugli, KIEI, master's student
► aliqulovhumoyunforever@gmail.com

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. //Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521). 1-2 betlar.
- [3] Узбекистан поддерживает цели устойчивого развития ООН до 2030 года. <http://www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.html>
- [4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. 1992 yil <https://constitution.uz/uz>
- [5] Навстречу зеленой экономике. Пути к устойчивому развитию и искоренению бедности обобщающий доклад для представителей властных структур [Towards a Green Economy. Ways to Sustainable Development and Poverty Alleviation Is a General Report for Representatives of Power Structures]. Available at: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf (accessed: 30.11. 2017)
- [6] Лясковская, Е.А., Григорьева К.А. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». - 2018. –Т. 12, № 1. - С. 15-22. БО 10.14529/et180102
- [7] Chapple K. Defining the Green Economy: A Primer on Green Economic Development // Berkeley: The Center for Community Innovation (CCI) at UC-Berkeley. - 2008. - P. 66
- [8] Худаяров А.А., Пирматов Х.Р. Воздействие туризма на национальную экономику Индонезии //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro, 2014. – №. 39. – С. 262-265
- [9] Гулямова Г. П. Формирование конкурентной бизнес среды в Узбекистане //Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2017. – С. 66-69
- [10] David William Pearce, Anil Markandya, Edward Burr Barbier, Edward Barbier Blueprint for a Green Economy London: Earthscan, 1989. – 192 p.
- [11] Башорина О.В., Темкина И.М. Переход к “зеленой” Экономике как фактор устойчивого развития и преодоления бедности. – Урал, 2012. – 201 с
- [12] Неверов А.В., Водопьянова Т.П. Экономика природопользования. – Минск, 2019. – 117 с
- [13] “Зеленая” экономика-главный тренд нового десятилетия. – М., 2021. С. 7-13.
- [14] Яшалова Н.Н. “Зеленая” экономика: региональный аспект. – Санкт-Петербург, 2014 – 194 с
- [15] Пискунов Н., Пахомов Н.В. Анализ мирового опыта перехода к “зеленой” Экономике. – М., 2022. – 213 с
- [16] Sh.M.Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1063>
- [17] Rustamovich, S. Z. Specific Aspects of Implications of Foreign Investments on the Integration of the National Economy into the Global Economy. International Journal of Research, 6 (3), 2019. 451-458
- [18] Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp
- [19] Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.
- [20] Экологические проблемы Узбекистана. <https://evolelium.com>. 2021.
- [21] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari